

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OMMAVIY AXBOROT  
VOSITALARINING O'RNI

Mirzamurodova Sevinch Zafar qizi  
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti tabasi

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari, xususan, internet, televideniya o'rni, ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi ekanligi, ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qilishi, ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib qilinishi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, texnologiya, yosh avlod, ommaviy, internet, televideniya, tarbiya.

**Аннотация:** В статье подчеркивается роль СМИ, в частности интернета, телевидения, в воспитании подрастающего поколения, в том, что средства массовой информации являются важнейшим, мощным и действенным средством идеологии, что средства массовой информации служат своеобразным воспитателем масс, организатором важных мероприятий, действенным инструментом решения насущных проблем, что через средства массовой информации осуществляется реализация наших национальных ценностей и общечеловеческих ценностей. раскрыта пропаганда ценностей, национальной идеи и демократических принципов.

**Ключевые слова:** информация, технологии, молодое поколение, масс, интернет, телевидение, воспитание.

**Annotation:** The article emphasizes the role of the media, in particular the Internet, television, in educating the younger generation, in that the media are the most important, powerful and effective means of ideology, that the media serve as a kind of educator of the masses, an organizer of important events, an effective tool solving pressing problems, that through the media the realization of our national values and universal values is carried out. propaganda of values, national idea and democratic principles is disclosed.

**Key words:** information, technology, young generation, masses, internet, television, education.

## KIRISH

Har bir jamiyat va xalqning tayanchi-o'sib kelayotgan yosh avlodidir. Mamlakar ravnaqi ko'p jihatdan yoshlarning intellekti, bilimi, intilishi va ishtirokiga bog'liq. So'nggi paytlarda ilmiy adabiyotlarda "axborot iste'moli madaniyati" tushunchasi muloqotga kiritildi ya'ni internet orqali yangi adabiyotlar to'g'risida ma'lumot olish, masofadan turib o'qitish oddiy holga aylanib qoldi.

XXI asrda insoniyat hayotida boshqa davrlardan ko'ra shiddatli, tezkor globallashuv jarayoni boshlandi. Ommaviy axborot vositalarida (OAV) globallashuv "keskin axborot tezligidir", "dunyo oynasi" degan iboralar tez-tez qaytariladi. Darhaqiqat globallashuv-olamda OAV mavjud har bir jabhada O'z ta'sirini ko'rsatib, hatto mazmuni mohiyatini ham o'zgartirib yuborishga muvaffaq bo'lmoda. Bu esa yuksak texnologiyalarga asoslangan yalpi

axborotlashuv insonning ongiga, shuuriga va dunyoqarashiga qudratli Kuch sifatida ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishiga olib kelmoqda.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili. Yoshlarda yot go'yalar mafkuraviy imunitetni shakllantirish hamda yoshlarning internetga qiziqishi ortib borishi singari jihatlarni tarbiyaga hamda o'smir yoshlar ruhiy holatiga ta'sirini aniqlash va muammoni bartaraf etish muvzuning dolzarbligini tashkil etadi.

S.Tomson, J.Merill, E. Denis, A.Mol, R. Xodj, D. Tripp kabi chet El tadqiqochilari A.Farfiyeva, G. Ubaydullayeva yurtimiz tadqiqochilarida media va uning inson hayotidagi ijtimoiy tarbiyaga ta'siri imkoniyatlari masalalari ochib berilgan. Yosh avlod tarbiyasiga OAV ning ta'sirini ijtimoiy psixologik tahlil qilib, tarbiyada OAVning salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan ibora

Asosiy qism. "Texnika rivojlanish asri" – deb nom olgan hozirgi davrda yoshlarimizning qanday mafkuraga moyilligi, ularning ongida shakllanayotgan o'y-fikrlari va tasavvurlarini ilmiy asosda o'rganish hayotiy zaruratdir. .Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, shuni unutmash kerakki, "bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin"va o'zlarining bir qator ma'ruzalarida "Biz butun dunyoni qurshab olgan internetni cheklay olmaymiz" – deb ta'kidlab o'tganlar.

Darhaqiqat hozirgi kunda internet butun dunyoning ommaviy axborot tarmog'iga aylandi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Internetda uzatilayotgan turli namoyishlarning farzandlarimiz tarbiyasidagi ahamiyati qanday. Axir har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bizning asosiy vazifamiz emasmi? Olimlar tomonidan qilingan bir necha tahlillarga nazar soladigan bo'lsak, internet sahifalarida zo'ravonlik epizodlarini ko'rsatilishi, bolalar multifilmlarida esa adolat va yovuzlikning jazolanishi mavzusini yashirin holda tasvirlanishi tomoshabinda albatta zo'rlik madaniyatini uyg'otishga ta'sir etadi. Hukumatimiz tomonidan joriy 2016 yil – "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlardan oq yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Shunday ekan farzandlarimizni har tomonlama sog'lom avlod qilib voyaga yetkazish har birimizning asosiy burchimizdir. Lekin hozirgi kunda ba'zi-bir oilalarimizda bolani tarbiyalashdek o'ta ma'suliyatli vazifani internet, telefon, komp'yuter yoki boshqa turdagi texnik vositalarga ishonib topshirayotgan ota-onalar ko'zga tashlanib turibdi. Achinarlisi shundaki, xorijiy kanallar targ'ib qilayotgan zo'ravonlik va terroristik sahnalar, behayo kliplar va filmlar namoyishi farzandlarimiz ongu-shuurida noto'g'ri qarashlarni shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

BMT Bosh assambleyasi 2006 yil 8 sentabrda qabul qilingan "BMTning global aksilterror strategiyasi"da yangi uslublar qatorida bioterrorizm hamda internetdan terror maqsadida foydalanishning oldini olish choralarini kuchaytirish alohida qayd etilgan. 2007 yil noyabrda AQSH Davlat departamenti "Tashqi raqamli aloqalar guruhi" nomli maxsus axborot dasturini joriy qilgan. Dastur maqsadi - arab, fors, urdu va boshqa tillardagi internet saytlari, chat va bloglarda AQSH siyosati haqidagi dezinformatsiya (noto'g'ri ma'lumotlar)ga qarshi kurash hisoblanadi. Dasturga ko'ra, zarur hollarda, departament xodimlari internet orqali rasman muloqotga kirishi va savollarga javob berishi, aniq hujjatlar asosida ma'lumot keltirishi ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalarini targ'ibtashviq qilishga qaratilgan veb saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanigan 7000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda. Bunday internet saytlar to'satdan paydo bo'ladi, vaqt o'tgach yo'qoladi, mazmunini o'zgartirmagan holda, tez-tez nomlanishi va domenini o'zgartirib turadi.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini utaydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq uylab kursak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan uldirish orqali millionlarda qo'rquv va daqshat uyg'otishga intiladilar. Demaq ularning maqsadlari - uldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari uzlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qurquvni, daqshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi

Internet quyidagilar bilan terroristlar uchun qulay hisoblanadi:

- Internetga kirishning osonligi;
- Foydalanuvchilar sonining ko'pligi ;
- Aloqaning anonimligi;
- Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklangani;
- Axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi;
- Faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi. Terroristlar internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar: Targ'ibot va tashviqot maqsadida ma'lumot tarqatish;
- Yangi a'zolari yollash (verbovka);
- A'zolik va xayriya badallarini yig'ish hamda ulardan foydalanish;
- Tarmoq va shahobchalar tashkil etish;
- Terroristlarni o'qitish, ko'rsatmalar berish;
- Razvedka va ma'lumot qidirish;
- Yangi terroristik harakatlarni rejalashtirish va boshqarish

Muhokama va natijalar. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 2 milliard

ortiqroq kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini quyidagi raqamlardan bilib olish mumkin: 2000 yildan 2012 yil oxiriga qadar dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 9,6 barobarga oshib, 2,4 milliard kishiga etdi, mobil aloqa abonentlari soni esa 13,4 barobarga oshib, 6,7 milliardni tashkil etdi. Internetdan foydalanuvchilarning 44,8 % (1,1 mlrd. kishi) Osiyo, 21,6 % (519 mln. kishi) Yevropa, 11,4 % (274 mln. kishi) Shimoliy Amerika qit'alariga to'g'ri keladi. Jahon veb-auditoriyasining 45 %ini 25 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o'smirlarning 68 % har kuni kimgadir SMS-xabar jo'natadi, 51 % ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30 % elektron pochtdan foydalanadi.

O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni -22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni -19 millionni tashkil etmoqda. Mamlakat bo'yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97 foizni, mobil internet qamrovi esa 87 foizni tashkil etdi.[6] 26 mingga yaqin "uz" domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet vositalari yoshlarni tarbiyalashda ularning estetik didlarini o'stirishga va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qila oladi. Biroq buning uchun fil'mlarda odamzodga xos bo'lgan turli illatlar emas, balki ezgu fazilatlar ulug'lanishi kerak. Zero, ekranga termulib o'tirgan bolaning xali shakllanib ulgurmagani dunyoqarashi birgina noto'g'ri axborot tufayli butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Payg'ambarimiz (s.a.v.) aytganlaridek: "Bolalaringizga odobni o'rgating va ularning odobini go'zal qiling" (Imom Buxoriy).

"Bolaning tarbiyasi nozik bo'ladi, u yaxshidan ham, yomondan ham ko'rganini oladi", deb xalqimiz bejizga aytmagan. Haqiqatdan ham, bolaga "yaxshi bo'l", degan bilan u eshitganiga emas, balki ko'rganiga amal qiladi. Demak, biz farzand tarbiyasida uning yuksak ma'naviyatli, axborot madaniyati iste'molida mustahkam ma'naviy immunitetga ega, Vatan va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida hamda puxta bilim egasi qilib tarbiyalab borishimiz lozim.

Hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchadan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab etmoqda. Shu ma'noda, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatni mustahkamlash, milliy matbuotimiz xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga erishish, internet jurnalistikasini rivojlantirish, noshirlik ishi, kitob savdosi, obuna masalalarida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog'lom raqobat muhitida ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'p ishlashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (Manba: uza.uz)-2019
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T.: -2008 O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi" (155 - modda, terrorizmga qarshi)-1994.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-j. - T.: "O'zbekiston", 1999.2.
5. Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. 26.06.2020
6. Mirziyoyev Sh.M. "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" bayram tabrigidagi nutqi.T.: - 2019.
7. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni.T.1998.
8. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi" (155 - modda, terrorizmga qarshi)-1994.
9. Jurnalistika: Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. Nashrga tayyorlovchi N.Toshpo'latova. 5-j. -T.: "O'zbekiston", 2019.